

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.GM/FM97.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ALLAMBERDIYEV ISKANDAR SUNNATULLA O‘G‘LI

**«KOSMOGEODEZIK VA GEOFIZIK USULLAR BO‘YICHA TOVOQSOY
POLIGONI VA UNGA YONDOSH HUDUDLAR SEYSMOAKTIV
ZONALARINING GEODINAMIK MODELI»**

04.00.06 - Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari

**geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Allamberdiyev Iskandar Sunnatulla o‘g‘li

Kosmogeodezik va geofizik usullar bo‘yicha Tovoqsoy poligoni va unga yondosh hududlar seysmoaktiv zonalarining geodinamik modeli.....3

Алламбердиев Искандар Суннатулла ўғли

Геодинамическая модель сейсмоактивных зон Таваксайского полигона и сопредельных территорий по данным космогеодезических и геофизических методов.....19

Allamberdiyev Iskandar Sunnatulla ugli

Geodynamic model of seismically active zones of Tavaksay area and adjacent areas using cosmogeodesic and geophysical methods37

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works41

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.GM/FM97.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ALLAMBERDIYEV ISKANDAR SUNNATULLA O‘G‘LI

**«KOSMOGEODEZIK VA GEOFIZIK USULLAR BO‘YICHA TOVOQSOY
POLIGONI VA UNGA YONDOSH HUDUDLAR SEYSMOAKTIV
ZONALARINING GEODINAMIK MODELI»**

04.00.06 - Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari

**geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/GM236 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.seismos.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Radjabov Shuhrat Sayfullayevich
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Abdullabekov Kaxarbay Nasirbekovich
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Asadov Akmal Ro'zimurodovich
geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi


Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Seysmologiya instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.GM/FM97.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «25» iyul soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy, Tel.: +99871 241-51-70, +99871 241-74-98, E-mail: seysmologiya@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Seysmologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1157 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy, tel.: +99871 241-51-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «11» iyul kuni tarqatildi.
(2025 yil «11» iyuldagi 16 raqamli reestr bayonnomasi)



[Handwritten signature]

V.A. Ismailov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o'rinbosari,
g.-m.f.d., professor

[Handwritten signature]

Z.F. Shukurov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
g.-m.f.f.d. (PhD)

[Handwritten signature]

A.I. Tuychiyev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida tabiiy va texnogen tushdagi ofatlardan himoyalalanish, zilziladan ko‘riladigan talafotlarni kamaytirish, shu jumladan aholi va hududlarni seysmik xavfini baholash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumladan, geologik-geofizik, kosmogeodezik tadqiqotlar orqali yer yoriqlari bilan chegaralangan bloklarning yo‘nalishlarini aniqlash, yer qobig‘ining kuchlanganlik-deformatsion holatini baholash hamda ularning zamonaviy seysmiklik bilan bog‘liqligini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanish natijalari zamonaviy geodinamik holatni modellashtirishga, zilzila tabiatini chuqur o‘rganishga, seysmik faol hududlar yer qobig‘ida kechayotgan endogen jarayonlar tufayli yuzaga keluvchi zamonaviy harakatlarni baholashga imkon beradi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida GNSS, InSAR-texnologiyasi va radarli interferometriya bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan seysmik faol hududlarda sodir bo‘lgan zilzilalar episentrlarida, ko‘chki xavfi mavjud bo‘lgan geologik jarayonlarni aniqlashda, faol yer yoriqlari zonalarini ajratishda, olingan natijalarni seysmologik ma’lumotlar bilan solishtirish orqali zamonaviy geodinamik modellarni tuzishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlar yer yuzasining yuqori aniqlikdagi raqamli balandlik modelini tuzishga hamda yer qobig‘ining zamonaviy vertikal va gorizontal harakatlarini aniqlash imkonini beradi.

Respublikamizda seysmik faol hududlar yer qobig‘ining gorizontal va vertikal harakatlarini aniqlash, tahlil qilish va monitoringini olib borishda yuqori aniqlikdagi kosmogeodezik o‘lchov natijalari va yerni masofadan zondlashning zamonaviy usullarini qo‘llashga katta e’tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash...»¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu maqsadga erishishda Chotqol-Qurama hududi yer qobig‘ining uch o‘lchamli zamonaviy geodinamik modelini yaratish tadqiqotlari hududning seysmik xavf-xatarini yanada ishonchliroq baholashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyundagi “Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf qilish samaradorligini tubdan yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5066-son Farmonida, 2017-yil 9-avgustdagi «Seysmologiya, seysmik chidamli qurilish hamda O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-3190-son va 2020-yil 30-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-4794-son Qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikaning fan va texnologiyalarni rivojlantirish - VIII “Yer haqidagi fanlar” (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral-xom ashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Zilzilani prognozlash, geodinamik faol hududlarni seysmik hududlashtirish, yer qobigʻining zamonaviy vertikal va gorizontalar harakatlarini baholashda H.F. Reid, Ch.F. Rixter, E.Yu. Bezdenejniy, V.E. Surkov, O.A. Odekov, V.G. Timinskiy, V.S. Jukov, S.F. Izyumov, N.A. Florensov, V.P. Solonenko, Y.L. Rebetskiy, V.G. Trifonov va oʻzbek olimlaridan K.N. Abdullabekov, A.R. Yarmuxamedov, D.X. Yakubov, M.A. Axmedjanov, R.N. Ibragimov, U.A. Nurmatov, R.A. Umurzakov, A.K. Xodjayev, T.U. Artikov, L.A. Xamidov, R.S. Ibragimov, T.L. Ibragimova, S.X. Maksudov, Sh.S. Radjabov, B.S. Nurtaev, A.I. Tuychiyev, D.Sh. Fazilova, I.M. Alimuxamedov, Z.F. Shukurov, V.R. Yusupov, A.B. Goipov va boshqalar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Oʻtgan davr mobaynida Oʻzbekiston hududining geodinamik poligonlari va texnogen obyektlarida oʻtkazilgan yer qobigʻining zamonaviy vertikal va gorizontalar harakatlarini tadqiq qilish boʻyicha koʻplab ilmiy va amaliy yutuqlarga erishilgan. Geodinamik poligonlar Oʻzbekiston hududining seysmik faol mintaqalarini monitoring qilishda etalon sifatida foydalanilgan. Tovoqsoy geodinamik poligoni hududida olib borilgan geofizik tadqiqotlarning avval oʻtkazilgan tadqiqotlardan farqi unda radarli interferometriya usulining qoʻllanilganligidir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Oʻzbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish (MUNIS)” Jahon bankining REP-04032022/209 raqamli “Oʻzbekiston hududida seysmik jarayonlarni monitoring qilishning yaxlit tarmogʻini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kosmogeodezik va geofizik usullar yordamida olingan maʼlumotlarni talqin qilish asosida Tovoqsoy poligoni va unga yondosh hududlar seysmik faol zonalarining geodinamik modelini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quydagilardan iborat:

Toshkentoldi hududida oldingi yillarda bajarilgan seysmologik, kosmogeodezik va geofizik, geomorfologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish;

GNSS maʼlumotlari asosida tadqiqot hududi yer qobigʻining zamonaviy gorizontalar va vertikal harakatlarini aniqlash;

radarli interferometriya usuli orqali kosmik tasvirlarni qayta ishlash hamda tadqiqot hududidagi yer qobigʻining zamonaviy gorizontalar va vertikal harakatlarini aniqlash;

radarli interferometriya, geofizika (magnitometriya, gravimetriya), geomorfologik usullari orqali tadqiqot hududidan oʻtgan yer yoriqlariga aniqliklar kiritish;

kosmogeodezik, seysmologik, geologik-tektonik ma'lumotlarni majmuaviy tahlil qilish asosida tadqiqot hududining zamonaviy geodinamik modelini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Tovoqsoy geodinamik poligoni va unga yondosh hududlar yer qobig'i olingan.

Tadqiqotning predmeti seysmik faol hududlar yer qobig'ida kechayotgan geodinamik jarayonlar hamda tektonik kuchlar ta'sirida yuzaga keluvchi zamonaviy gorizont va vertikal harakatlar tashkil etilgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda radiolokatsion kosmik tasvirlarni SNAP dasturida qayta ishlash usuli, GNSS o'lchov ma'lumotlarini GAMIT-GLOBK dasturida qayta ishlash va tahlil qilish usullari, geofizikaning magnitometriya va gravimetriya usullari orqali olingan ma'lumotlarga ishlov berish hamda aniqlangan anomaliyalarni talqin qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

zamonaviy radarli interferometriya va geomorfologik usullari orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida tadqiqot hududidan o'tgan yer yoriqlari ajratilgan.

radarli interferometriya va GNSS usullari o'lchov natijalari orqali Tovoqsoy geodinamik poligoni yer qobig'ining zamonaviy vertikal va gorizont harakatlari aniqlangan.

ilk bor O'zbekiston sharoitida kosmik tasvirlarni radarli interferometriya usuli orqali deshifrovkalash natijasida sodir bo'lgan zilzila kuchi qiyosiy baholangan.

Chotqol-Qurama hududi yer qobig'ining uch o'lchamli zamonaviy geodinamik modeli yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

GNSS kuzatuvlar orqali Tovoqsoy geodinamik poligoni yer qobig'ining tayanch punktlarining zamonaviy gorizont va vertikal harakatlari baholangan;

tadqiqot hududi yer qobig'ining zamonaviy harakatlarini tahlil qilish natijasida relyefdagi siljishlar aniqlangan;

Chotqol-Qurama hududi seysmik faol zonalarining uch o'lchamli geodinamik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi yuqori aniqlikdagi radiolokatsion kosmik tasvir (piksel o'lchami o'rtacha 9 m, max 20 m) ma'lumotlari qayta ishlanganligi, 2022-2024-yillar davomida yuqori aniqlikdagi GNSS o'lchovlari 8 marta o'tkazilganligi, detal miqyosdagi gravimetriya va magnitometriya tadqiqotlar 5 ta profillar bo'ylab (umumiy uzunligi 38 km) olib borilganligi, tadqiqot hududida 1901-2023 yillarda 30360 ta sodir bo'lgan zilzilalar katalogi ma'lumotlaridan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy radiolokatsion kosmik tasvirlarni radarli interferometriya va GNSS usullari asosida tadqiq etish orqali yer qobig'ining zamonaviy vertikal va gorizont harakatlarini aniqlash, faol yer yoriqlarini ajratish, sodir bo'lgan zilzila giposentrlarini tahlili asosida geodinamik holatni modellashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati seysmik faol zonalarda geofizik anomaliyalar orqali yer yoriqlarini ajratilganligi, radarli interferometriya va GNSS usullari asosida yer qobig'ining zamonaviy vertikal va gorizontalar harakatlarini aniqlanganligi, radiolokatsion kosmik tasvirlarni tahlil qilish orqali zilzila kuchi qiyosiy baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kosmogeodezik va geofizik usullar bo'yicha Tovoqsoy poligoni va unga yondosh hududlar seysmoaktiv zonalarining geodinamik modelini yaratish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kosmogeodezik va geofizik usullarni asosida Chotqol-Qurama hududining tajriba-sinov uchun tanlangan mahalliy miqyosdagi hududlari bo'yicha turli faollik darajasiga ko'ra ajratilgan yer yoriqlari xaritasi Geologiya fanlari universiteti "Mineral resurslar instituti" DMning amaliyotiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 13-avgustdagi 2968-son ma'lumotnomasi). Natijada Toshkentoldi hududi yer qobig'ining zamonaviy vertikal va gorizontalar harakatlari keskin o'zgargan qismlarini baholashga imkon bergan;

Tovoqsoy maydoni va uning atrof hududlarida 2022-2024 yillarda olib borilgan davriy GNSS o'lchovlari asosida tuzilgan yer qobig'ining o'rtacha yillik gorizontalar va vertikal harakat tezliklarining Globk va Matlab modellari Geologiya fanlari universiteti "Mineral resurslar instituti" DMning amaliyotiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 13-avgustdagi 2968-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot hududining zamonaviy geodinamik holatini baholashga va yer qobig'ining zamonaviy harakatlarini aniqlashga xizmat qilgan;

O'zbekiston sharoitida kosmik radarli interferometriya usulidan foydalangan holda tuzilgan Tovoqsoy hududining zamonaviy geodinamik harakatlarini aks ettiruvchi model xarita Geologiya fanlari universiteti "Mineral resurslar instituti" DMning amaliyotiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 13-avgustdagi 2968-son ma'lumotnomasi). Natijada, yerni masofadan zondlash, Sentinel-1 kosmik tasvirlarini deshifrovkalash tadqiqotlari yer qobig'ining geodinamik harakatlarini tizimli monitoring qilishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 7 tasi ilmiy maqola, 8 tasi tezis. Jumladan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, shu jumladan 6 tasi respublikada va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida, olib borilgan ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va unga bo'lgan talab, tadqiqotni maqsad va vazifalari asoslangan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining

ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq kelishi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar boʻyicha maʼlumotlar va dissertatsiya tuzilishi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot hududining oʻrganilganlik darajasi**» deb nomlangan birinchi bobida Oʻzbekistonda mezazoy davrigacha boʻlgan geodinamik tadqiqotlar, geologiya, magmatizm, metamorfizm, metallogeniya, tektonika va foydali qazilma konlarini oʻrganish masalalari X.M. Abdullayev, I.H. Hamrabayev, I.M. Isamuxamedov, V.I. Popov, X.N. Baymuxamedov, N.P. Vasilkovskiy, R.B. Baratov, A.B. Bakirov, S.M. Babaxodjaev, G.P. Vinnichenko, A.V. Pokrovskiy, O.M. Borisov, I.M. Mirxodjayev, X.A. Akbarov, T.N. Dalimov, R. Axundjanov, I.N. Ganiyev, X.D. Ishbayev, A.K. Xodjayev va boshqalarning fundamental ishlarida oʻz aksini topgan.

Mezozoy-kaynozoy yangi va zamonaviy davr geodinamikasi S.S. Shults, V.I. Veber, V.I. Popov, A.M. Akramxodjayev, A.N. Sultanxodjayev, A.G. Babayev, G.O. Mavlonov, Sh.D. Davlyatov, B.B. Tal-Virskiy, M.S. Saydaliyev, X.A. Abdullayev, B.B. Siddikov, R.N. Ibragimov, D.X. Yakubov, D.B. Djamalov, R.A. Umurzakov, A.K. Xodjayev, A.R. Yarmuxamedov, D.Sh. Fazilova, I.M. Ergashev, I.M. Alimuxamedov, U.A. Nurmatov, Z.F. Shukurov va boshqalarning tadqiqotlarida keltirilgan.

Yer qobigʻining tuzilishi, geofizik maydonlar, seysmiklik darajasi I.H. Hamrabayev, Y.M. Butovskaya, V.I. Ulomov, F.X. Zunnunov, B.B. Tal-Virskiy, K.N. Abdullabekov, T.U. Artikov, S.X. Maksudov, A.I. Tuychiyev, A.P. Rayzman, M.X. Bakiyev, V.N. Yakovlev, I.B. Yakovleva, S.S. Seyduzova, A.I. Zaxarova, L.M. Plotnikova, F.S. Sadikov, X. Yusupxodjayev, S.S. Xusamiddinov, X. Atabayev, A.R. Yarmuxamedov, R.A. Umurzakov, Sh.S. Radjabov, B.S. Nurtaev, T.L. Babadjanov, R.S. Ibragimov va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida aks etgan.

Tadqiqot hududida oʻtkazilgan geologik-geofizik va geodezik tahlili, seysmik faolligi, yer qobigʻining zamonaviy vertikal va gorizontal harakatlari, seysmik rayonlashtirish ishlari batafsil keltirilgan. Tektonik jihatdan Chotqol-Qurama hududi murakkab togʻ tizmasini namoyon qiladi, yaʼni murakkab geologik jarayonlar va burmalanishlar Alp burmalanish vaqtigacha boʻlgan faol togʻ tizmasini hosil qilgan. Chotqol-Qurama hududida burmalanish natijalarida dengiz sathidan 4503 m balandlikdagi yuqori koʻtarilmali togʻ tizmalarini hosil qilgan. Shu sababli tadqiqot hududi geodinamik jihatdan turli xil maydonlarda ular yagona yoʻnalishga yaʼni aynan bir yoʻnalishda emas va keskin oʻzgaruvchan. Bu esa geodinamik harakatlarni oʻrganish ishlarni murakkablashtiradi.

Bularning barchasidan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, tadqiqot hududi kelgusida geodinamik gorizontal va vertikal harakatlarni aniqlashda geodinamik tayanch punktlarining kam sonli ekanligini inobatga olgan holda ishonchli maʼlumotlar olishda GNSS va radarli inerferometriya maʼlumotlari majmuaviy qoʻllash orqali monitoring qilish juda samarali natija beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Geofizik (magnitometriya, gravimetriya) ma'lumotlarini majmuaviy interpretatsiyalash orqali yer yoriqlariga aniqlik kiritish**» deb nomlangan va hududning geologik tuzulishini, Karjantog' faol yer yorig'iga aniqlik kiritish maqsadida geofizik (magnitometriya, gravimetriya) usullari majmuaviy holatda o'tkazilgan, ulardan olingan ma'lumotlarni talqin qilish natijalari keltirilgan. Geofizik (magnitometriya, gravimetriya) usullarni tadqiqot hududida profilli ishlar olib borilib, protonli magnetometr hamda GNU-KS markali gravimetrlari bilan dala o'lchov ishlari olib borildi. Tadqiq qilishda tanlangan profillar 4 ta janubdan shimol tomon va 1 ta sharqdan g'arb tomonga kesishuvchi profillar tanlab olinib o'lchovlar olindi.

Magnit maydon ma'lumotlaridan yer yoriqlariga aniqlik kiritishda magnetometrik o'lchovlardan olingan ma'lumotlarni talqin qilish orqali magnet maydon to'liq tashkil etuvchisi nisbiy farqlarining ΔT [nTl] qiymatlari hisoblab chiqildi hamda «Geophysical software V2023» dasturida hududning ΔT anomaliya grafigi va izodinam xaritalari tuzildi. Tadqiqot hududida olib borilgan magnetometriya ma'lumotlarini sifatli talqin qilish natijasida keskin o'zgarishli anomaliyalarni oddiy hisob-kitob ishlari yordamida qayta hisoblandi va hududdagi ayrim xususiyatlarni (yer yoriqlarini) ajratishga asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot hududida protonli magnetometr yordamida olingan ma'lumotlarni talqin qilish natijalariga ko'ra qurilgan magnet maydon izodinam xaritasida hududning shimoliy qismi yuqori magnetlangan, janubiy qismi kuchsiz magnet maydon xususiyatiga ega ekanligi qayd qilindi. Buning asosiy sababi tadqiqot o'tkazilayotgan hududning shimoliy qismi intruziv tog' jinslari, janub tomonda esa magnetlanish qiymati past bo'lgan mezazoy-kaynazoy davri cho'kindi tog' jinslaridan tashkil topganligi bilan xususiyatlanadi.

Tadqiqot hududida olib borilgan profilli magnetometriya o'lchov natijalari bo'yicha magnet maydon anomaliyasi Karjantog' yer yoriq zonasida yuqori ekanligini qayd qilindi. Magnet maydon anomaliyasi faol yer yorig'i zonalarida yuqori ko'rsatgichda ko'rsatishi gidrotermal jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, hududda tarqalgan tog' jinslarining magnet xususiyati ham alohida o'rin tutadi.


Magnet maydon intesivligi tadqiqot hududi uchun, Karjantog' yer yorig'ida eng yuqori 1300 [nTl]gacha, intruziv tog' jinslarida 1000 [nTl], cho'kindi tog' jinslarida 700 [nTl] atrofida musbat qiymatlarda ekanligi aniqlandi. Yer yorig'ida magnet maydon yuqori bo'lish sabablaridan biri yer ichki paleozoy va undan pastki qatlamlarida metallga boy mineral elementlari suv bilan birgalikda yuqoriga chiqishi hisobiga hamda yer ichki qobig'ida temperatura oshib borishi natijasida suv va issiq jinslar o'rtasida sodir bo'ladigan fizik va kimyoviy jarayonlar hodisasi sodir bo'lib, magnet maydon qiymatlarining yuqori anomaliya chiqishiga ta'sir qiladi.

Gravitatsion kuchlarning yer qobig'ida notekis taqsimlanishi unda turli zichlik hamda tektonik faollikdagi qismlar bo'linishi, bloklarning harakatiga sabab bo'ladi. Og'irlik kuchi anomaliyasi orqali yer ichki qismida qatlamlar yotish shakli, yer yoriqlari, tog' jinslarining zichligini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot hududida GNU-KS gravimetridan foydalangan holda dala kuzatuv ishlari nisbiy o'lchovlar olinib, olingan ma'lumotlarni Buge tuzatmasi bo'yicha

talqin qilish natijasida Δg [mGal] izoanomaliya xaritasi tuzilgan. Mazkur xaritani geologik talqin qilishda hududda tarqalgan tog' jinslarining zichligi inobatga olindi. O'lchovlar o'tkazilgan hududda intruziv tog' jinslari keng tarqalgan bo'lib ulardan asosan, granitlarning zichligi - 2.6 g/sm^3 , granodioritlarning zichligi - 2.8 g/sm^3 , gabbro zichligi - 2.9 g/sm^3 ni tashkil qiladi. Bundan tashqari Karjantog' yer yoriq'i bilan kontaktda bo'lgan bo'r davri yotqizig'i ohaktoshlari zichligi - 2.3 g/sm^3 va paleogen davri qumtoshlari - 2.2 g/sm^3 , neogen davri gilli qumtosh, to'rtlamchi davr qum, galechnik, lyosslar ham uchraydi.

Gravimetriya nisbiy o'lchov ma'lumotlarini Buge tuzatmasi (reduksiya) bo'yicha talqin qilinib, og'irlik kuchi grafiqi Δg_a Karjantog' yer yoriq'ida past qiymatli keskin o'zgarish hamda magnit maydon anomaliyasi yer yoriq zonalarida yuqori qiymatda va keskin o'zgarish bilan namoyon bo'ldi (1-rasm).



1-rasm. Tovoqsoy maydonining AB profil bo'yicha geologik kesim va magnit maydon ΔT grafiqi hamda og'irlik kuchi Δg_a grafiqi

Ushbu magnitometriya va gravimetriya usullarni majmuaviy talqin qilish natijasida Karjantog' faol yer yoriq zonasi hamda hududda tarqalgan tog' jinslari va geologik tuzilishini baholashda A.R. Yarmuxamedov (1978) tomonidan tuzilgan Tovoqsoy geodinamik poligonining geologik sxematik xartasiga solishtirish bilan amalga oshirildi. Olingan natijalar bir-biriga mos keladi.

Dissertatsiyaning «Yer qobig'ining geodinamik harakatlarini monitoringida radarli interferometriya va GNSS usullari» deb nomlangan uchinchi bobida yer qobig'ining zamonaviy gorizont va vertikal harakatlarini sun'iy yo'ldoshlardan olingan kosmik tasvirlarni radarli interferometriya usuli va GNSS (Global Navigation Satellite Systems) usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Hozirgi kunda yer qobig'ining zamonaviy gorizont va vertikal harakatalarini o'rganishda GNSS usuli ham keng qo'llanilib kelinmoqda, GNSS usuli ham sun'iy yo'ldosh bilan bilvosita aloqador bo'lib, yer ustki geodinamik punktlar orqali aniq koordinatalarni o'lchash asosida yer qobig'ining zamonaviy gorizont va vertikal harakat tezligini (mm/yil) aniqlash imkoniyatiga ega. GNSS o'lchovlari yillik, davriy o'lchovlar olib borilib ularning farqi orqali yer qobig'ining zamonaviy gorizont va vertikal harakat tezligini aniqlash imkoniyatiga ega.

Sentinel-1 sun'iy yo'ldoshidan olingan kosmik tasvirlarni SNAP dasturi yordamida radarli interferometriya usuli orqali yer qobig'ining zamonaviy gorizont va vertikal harakatlarini aniqlash imkonini beradi. Sentinel-1 sun'iy yo'ldoshining fizik xususiyatlari 1-jadval.

1-jadval

Sentinel-1 sun'iy yo'ldoshining fizik xususiyatlari

Uchirilgan yili	2014-yildan hozirgi kungacha		
Orbita balandligi	700 km		
Davriyligi	12 kun		
Piksellar o'lchami	O'rtacha 9 m, max 20 (50) m		
To'lqin uzunligi	5.6 sm		
Chastotasi	5.405 GHz		
Rejim	Obzor doirasining kengligi, km	Ishlovlarsiz tiniqlik, m	Qutblanish
Interferometrik kenglik	250	5x20	VV+VH, HH, VV


Sentinel-1 sun'iy yo'ldoshi bir xil traektoriya, orbita va fazoviy ko'rsatgich parametrlari bir xil faqat vaqt ko'rsatgichlari farq qiladigan kosmik tasvirlar orqali yer qobig'ining zamonaviy vertikal va gorizont harakatlarini aniqlash imkonini beradi.

Differentsialli interferogramma fazasida davriy tabiat mavjud bo'lib, $-\pi$ dan $+\pi$ gacha o'zgaradi, shuning uchun ham, qachonki yer ustki qismining siljishlar o'lchami radar (balandlik bo'yicha tasvirlash usuli) to'lqin uzunligi yarmidan ortsa (faza qiymatlarning farqi 2π ga ortsa) fazalarda sakrabsimon o'zgarish yoki uzilish kuzatiladi. Bundan keyin esa faza qiymatlarining farqi ortishi davom etadi. Fazalar davriy tabiati va davriydan uzluksiz fazaga o'tishda faol siljishlar uchastkasi namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot hududi yer qobig'ining gorizont va vertikal harkatlarini kosmogeodezik ma'lumotlari bo'yicha baholash**» deb nomlanuvchi to'rtinchi bobida yer qobig'ining zamonaviy vertikal va gorizont harakatlarini o'rganish uchun zamonaviy usullardan foydalanishga e'tibor qaratilgan. Tadqiqot hududi geodinamik poligon sifatida avvaldan ma'lum bo'lgan doimiy GNSS kuzatuv ishlarini olib borish uchun tayanch nuqtalari o'rnatilgan. Tovoqsoy geodinamik poligonida olib borildi. GNSS ishlariga qo'shimcha ravishda radarli interferometriya ma'lumotlarini qayta ishlash orqali yer qobig'ining zamonaviy gorizont va vertikal harakatlarini doimiy monitoring qilish imkonini berdi. Ma'lumotlarning ishonchliligini oshirish, operativ monitoringni kuchaytirish, yer qobig'ining zamonaviy gorizont va vertikal harakatlarini doimiy kuzatish imkonini beruvchi usullarni va metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida radarli interferometriya usuli qo'llanildi.

Sentinel-1 sun'iy yo'ldoshidan olingan radiolokatsion kosmik tasvirlarni GNSS o'lchov ishlari olib borilgan vaqt bilan bir xil ravishda 10.06.2022 yil va 05.01.2024 yillardagi kosmik tasvirlari olinib, SNAP dasturida interferometrik usuli orqali deshifrovka qilindi. Hamda SNAP dasturida qayta ishlangan kosmik tasvir

tadqiqot hududida Karjantog‘ yer yorig‘i shimoliy qismi vertikal ko‘tarilish +5.5 mm/yil va Karjantog‘ yer yorig‘ining janubiy qismi -1.25 mm/yil vertikal cho‘kish harakatlari aniqlandi (2-rasm).




2-rasm. Radarli interferometriya usulida qayta ishlash natijasida aniqlangan yer qobig‘ining vertikal harakatlari (mm)

Radarli interferometriya usulining yana bir afzalliklari sodir bo‘lgan zilzila kuchini qiyosiy baholash va ushbu zilzila natijasida yer qobig‘ining vertikal harakatlari miqdoriy aniqlash imkonini beradi. Ushbu radarli interferometriya imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida tadqiqot hududimizda 2016-yildan keyingi vaqtlarda kuchli magnitudali zilzila kuzatilmaganligi sababli Amerikaning USGS sayti e‘lon qilgan. 2016-yil 16-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Namangan viloyati Pop tumanida 40,997 N 70,988 E ushbu koordinatada 4,8 magnitudali va chuqurligi 17 km bo‘lgan zilzila sodir bo‘lgan. Biz ushbu ma‘lumot bilan radarli interferometriya ma‘lumotlarini solishtirish maqsadida va zilzila natijasida yer qobig‘ining zamonaviy vertikal harakatlarini tahlil qildik. Buning uchun biz Sentinel-1 sun‘iy yo‘ldoshidan radar kosmik tasvirlarini yukladik. Olingan kosmik tasvirlar farqi 24 kun bo‘lgan bir xil hududning ikkita mos kosmik tasviri olindi.

Kosmik tasvirlarni deshifrovkalash, ikki kosmik tasvirni fazalar farqi natijalari orqali sodir bo‘lgan zilzilalar kuchini qiyosiy baholash imkonini berdi. Faqatgina yuqori magnitudali zilzilalardan keyingi dizyunktiv seysmodislokatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Interferogrammalar zilziladan bir kun oldin va 23 kun keyin 24 kun farq bilan olingan (15.04.2016 y. va 09.05.2016 y.) tasvirlar bo‘yicha qurilgan. Yer qobig‘ining zamonaviy vertikal harakatlari ko‘tarilishi 2,39 sm va tushishi – 2,42 sm (3-rasm).

Radarli interferometriya usuli ma‘lumotlarini GNSS o‘lchov ishlari ma‘lumotlari bilan taqqoslama tahlil qilish maqsadida Tovoqsoy geodinamik poligonida olib borilgan davriy GNSS o‘lchov ishlarini GAMMIT-GLOBK dasturida qayta ishlash orqali har bir geodinamik punktda gorizontal harakat tezliklari aniqlandi.



3-rasm. Radarli interferometriya usuli orqali zilzila kuchi qiyosiy baholash natijasi va yer qobig'ining zamonaviy vertikal harakatlari

Unga ko'ra Skala punkt 2.7 mm/yil, Vysota punkt 2.15 mm/yil, Astropunkt 2.05 mm/yil, Kladbishe 2.25 mm/yil va Ferma geodinamik punktida 2.55 mm/yil gorizontol harakat tezliklari aniqlandi. Gorizontol harakat yo'nalishlari barcha geodinamik punktlarda bir xil yo'nalishda va tezliklari har xil bo'lib, sharq tomon harakat qilmoqda. Tadqiqot hududida olib borilgan davriy GNSS ma'lumotlarini qayta ishlash natijasida tayanch punktlarning vertikal harakati tezligi Skala punktida +2.25 mm/yil, Vysota punktida +2.10 mm/yil, Ferma punktida +3.0 mm/yil, Astropunktida -1.0 mm/yil va Kladbishe punktida -1.3 mm/yil harakati tezliklarida ekanligi aniqlandi.

Ushbu GNSS va radarli interferometriya usullari natijalari asosida geodinamik harakatlarni baholashda tadqiqot hududidagi Karjantog' yer yorig'ining shimoliy qismi vertikal ko'tarilish va janubiy qismi vertikal cho'kish zonada ekanligi aniqlandi. Ushbu vertikal ko'tarilish va cho'kish o'rta Tyan-Shan tog' tizmalarining tektonik kuchlar natijasida yuzaga kelgan bo'lib, janubiy Tyan-Shan shimol tomon o'rta Tyan-Shandan 5-6 barobar katta tezlik bilan harakat qilmoqda (A.V. Zubovich, 1992), Chotqol-Qurama hududining vertikal harakatlari shimoliy-g'arb tomon vertikal ko'tarilish markaziy qismi cho'kish va janubiy tomon vertikal ko'tarilish (D.Sh. Fozilova, 2019-2020 y.) bilan izohlanadi.

Regional rejada janubiy Tyan-Shan harakati tezligi natijasida vertikal ko'tarilishi o'rta Tyan-Shanni shimol tomon harakatga keltirmoqda, bu yerda o'rta Tyan-Shan asosiy tayanch bo'lib, janubiy Tyan-Shan harakati natijasida sekin tezlik bilan harakat qilmoqda, janubiy Tyan-Shanni esa Pomir tog'lari tomondan harakatga keltirmoqda.

Tadqiqot ishlarini majmuaviy talqin qilish natijasida radarli interferometriya ma'lumotlarini qayta ishlash orqali olingan natijalar GNSS ma'lumotlaridan olingan natijalar bilan tasdiqlandi.

Radarli interferometriya usuli orqali yer qobig'ining zamonaviy vertikal va gorizontol harakatlarini monitoring qilish va faol yer yoriqlarini ajratishda qo'llash samarali natija beradi. Kelajakda ushbu usul GNSS ma'lumotlari bilan majmuaviy qo'llashda yordamchi usul sifatida foydalanish mumkin, radarli interferometriya usuli afzalliklari kosmik tasvirlardan foydalangan holda masofadan turib hududni geodinamik monitoring qilish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning «**Chotqol-Qurama hududining geodinamik modeli**» deb nomlangan beshinchi bobida geodinamik jarayonlar, yer qobig'ining tuzilishi, uni harakatga keltiruvchi jarayonlar, kuchlar va zilzilalar katalogi orqali tuzilgan geodinamik model haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Sodir bo'layotgan tektonik kuchlar natijasida vujudga keladigan yer yoriqlari yer qobig'ining zamonaviy gorizont va vertikal harakatlarini o'rganish geologiya sohasida muhim ahamiyatga ega ekanligi kasb etadi.

Tadqiqot hududida ko'plab geolog-geofizik olimlar tomonidan Chotqol-Qurama faol tektonik mintaqa ekanligi qayd qilinib, regional yer yoriqlari ajratilgan. Tadqiqot hududi bo'yicha zamonaviy usullarni majmuaviy qo'llagan holda Alp burmalanish davriga mansub faol yer yoriq zonalarini geomorfologik belgilariga ko'ra, ya'ni relyef izochiziqlari, gidrotarmoqlar, zilzilalar katalogi va yerni masofadan zondlash ma'lumotlarini majmuaviy qo'llagan holda avval ajratilgan yer yoriqlariga aniqlik kiritilib, yangi 7 ta yer yoriqlari ajratildi.

Ajratilgan yer yoriqlari chegarasi bo'ylab faollik darajasi bo'yicha geodinamik bloklarga ajratildi. Radarli interferometriya usuli orqali Karjantog' shimoliy qismida dizyunktiv seysmodislokatsiya aniqlandi. Ushbu seysmodislokatsiya ikki turli vaqtlardagi radiolokatsion kosmik tasvirlarni radarli interferometriya usuli orqali hududining zamonaviy vertikal harakatlari aniqlandi. Karjantog' shimoliy qismida aniqlangan dizyunktiv seysmodislokatsiya g'arbiy va shimoli-g'arbiy qismida 4.5, 5.0 magnitudali zilzila sodir bo'lgan va ushbu natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Sodir bo'lgan yuqori magnitudali zilzilalar gipomarkazlarini makonda taqsimlanishini tahlil qilish natijasida yer qobig'i tuzilishining o'ziga xosliklari aniqlangan: birinchidan zilzilalar o'choqlari burmali-blokli strukturalarni ajratib turuvchi yoriqlar zonalariga to'g'ri keladi, ikkinchidan ushbu buzilishlarning ko'plari Moxorovichich chegarasida o'z aksini topmaydi, uchinchidan giposentrlar asosan yer qobig'ining cho'kindi va granitli qatlamlarda joylashadi.

Zilzilalar magnitudasining fazoviy joylashuvini tahlil qilib zilzilalar giposentrlarining joylashish chuqurligini tahlil qilish natijasida uning tadqiqot hududida 5 dan 30 km orasida o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Makon bo'yicha taqsimlanishi taxminan quyidagicha ko'rinishda: chuqurligi hudud janubida va janubi-sharqida 25-30 km, markaziy qismida 15-20 km, chuqurligi 5-10 km deyarli barcha joyda.

Giposentrlari 15-20 va 25-30 km bo'lgan zilzila o'choqlari chuqur strukturalarga yoki yer qobig'ining strukturaviy komplekslariga mos bo'lib, ular rivojlanishning bardavomligi natijasida jiddiy tektonik harakalanish darajasini nafaqat platformali bosqichda balki platformali strukturalarning qayta tashkil qilinishi boshlangan yangi davrida ham saqlab qolgan (R.N. Ibragimov, 1978). O'choq chuqurligi 5-10 km tashkil qiluvchi zilzilalar asosan texnik faolligi hozirgi vaqtda ham jadal namoyon bo'layotgan yer yuzasiga yaqin joylashgan yosh strukturalarning shakllanishi bilan bog'liq.

Chotqol-Qurama hududining geodinamik jihatdan faol mintaqa hisoblanganligi bois ushbu harakatlar bir qancha xorij olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lib,

Farg‘ona vodiysining janubiy qismida yer qobig‘ining hozirgi zamonaviy siljishlari aks etgan. Ushbu olib borilgan izlanishlarni qanchalik asoslanganligini nazariy jihatdan zamonaviy navigatsion sun‘iy yo‘ldosh tizimlarining (GPS) o‘lchamlari orqali aniqlangan. Lekin biz uchun hududning aynan blokli tuzilishi, bloklarning yer yoriqlari bilan bo‘lingan, kesishgan mintaqalarda hosil bo‘layotgan zilzilalarga bog‘liq modelini tuzish maqsadga muvofiq bo‘lganligi uchun, 1901-2023-yillarda sodir bo‘lgan zilzilalar katalogi ma‘lumotlarni zamonaviy GAT-texnologiya “ArcScene” dasturida zilzilalar kataloglarini chuqurlik bo‘yicha 3D o‘lchamli fazoda taqsimlanishi joylashtirib chiqildi. Bunda asosiy e‘tibor zilzilalar magnitudasi kattalik bo‘yicha taqsimlanishi va joylashishi chuqurligi Z o‘qi bo‘yicha aks ettirildi va hosil bo‘lgan 3D o‘lchamli modelda yer yuzasining raqamli balandlik tasvirini, Rossiya Fanlari akademiyasi olimlari D.M. Bachmanov va boshqalar tomonidan ajratilgan faol yer yoriqlari bilan ustma-ust qo‘yilganda zilzilalar katalogi faol yer yoriqlari mintaqasida joylashgan zonalar bilan namoyon bo‘ldi. Ularning chuqurlik bo‘yicha taqsimlanishi shimoliy va janubiy borda vertikal ko‘tarilish natijasida markaziy qismi vertikal cho‘kish ko‘rinishda aks etdi. Ushbu ma‘lumotlarning ishonchliligi avvalgi qayd qilingan GNSS ma‘lumotlarining vertikal harakatlarida o‘z isbotini topgan.

Geodinamik jihatdan hozirgi yer qobig‘ini shakllanishini bir qancha platforma, plita, orogen mintaqaga uchun tadbiq qilish mumkin bo‘lgan variantlarini S.Maruyama modeliga qo‘yiladigan bo‘lsa qurilgan modelda yer qobig‘ining shakllanishi aynan Chotqol-Qurama (Tovoqsoy maydoni) hududi uchun faol yer yoriqlariga bog‘liqligining blokli modeli namoyon bo‘ladi (4-rasm).

Chotqol-Qurama hududi Farg‘ona botiqligi hosil bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Farg‘ona botiqligi faol shakllanishi Hindiston va Osiyo plitalari to‘qnashish natijasida yuzaga kelgan. Ushbu to‘qnashish natijasida kuchli tektonik harakatlar natijasida yirik yer yoriqlari zonasi keng rivojlanishiga olib kelgan. Ushbu yer yoriqlari strukturaviy jihatdan hozirgi Farg‘ona botiqligi shimoliy va janubiy tomondan ajratib turadi. Rivojlanishning platformali bosqichi gersin orogenezi yakunlanganidan va tog‘ qurilmalarini sezilarli darajada nurashidan so‘ng boshlangan. Gersin burmalanish natijasida g‘arbiy Tyan-Shan va Farg‘ona botiqligi nisbatan platformali quruqlikni ifodagan bo‘lib, uning relyefi yuqori paleozoy tizmasi cho‘qqilarining reliktlari bilan murakkablashgan barqaror ko‘tarilishlar va cho‘kish hududlari aniqlangan.

Perm davri oxiriga kelib, Farg‘ona botiqligi Pangeya superkontinent tarkibiga kirgan. Umuman olganda, platformali rivojlanish bosqichi Perm yakuni Trias boshidan boshlab eotsenga qadar davom etgan.


Yura davrining boshlanishi yer qobig‘i kengayish rejimining susayishi va cho‘kindi to‘planishga oid dengiz rejimining kontinental rejimga o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Aynan shu davrda hududning nisbatan ko‘tarilishi va cho‘kindilar to‘planishida tanaffuslar qayd etiladi.

Bo‘r davri yotqiziqlari yura ustiga transgressiv tarzda va stratigrafik nomuvofiq holda joylashadi. Bo‘r davrida Farg‘ona botiqligi hududi umumiy cho‘kishi sharqiy

qismida va Yura davriga nisbatan ancha faol kechadi. Biroq kichik farqlanadigan darajadagi cho‘kish ta’siriga uchraydi.

Paleogen oxirida-Neogen boshida Chotqol-Qurama, Farg‘ona, Turkiston-Oloy tizmalari faol shakllangan. Ular erta va kechki miotsenda o‘shishi jadal erroziya va chaqiq materiallarni ko‘chirgan holda qizil rangli terrigen molass seriyasini shakllangan.

To‘rtlamchi davr oxiriga kelib tog‘lar va tik qiyaliklarda daryolar bilan kesib o‘tilishi bilan birga, yanada kuchliroq ko‘tarilish (baholanishiga ko‘ra 400-500 m ga qadar) sodir bo‘lgan, muz bilan qoplangan tepaliklarning umumiy balandligi 2500-3000 m, ba’zi joylarda 5 km gacha yetgan qalinlikni tashkil qilgan.



4-rasm. Chotqol-Qurama (Tovoqsoy poligoni) hududining zilzilalar katalogi asosida yaratilgan yer qobig‘ining geodinamik modeli

Shundan so‘ng ko‘tarilishlarni sekinlashishi va ekzogen jarayonlar natijasida relyefning tekislanishi qayd etiladi. Geomorfologik kuzatuvlar bo‘yicha tadqiqot hududining janubiy qismi hozirgi kunda ham dizyunktivlar bo‘yicha bo‘lgani kabi, burmalanishlar hosil bo‘lishi shaklida ham, tektonik zamonaviy harakatlanishlar davom etayotganligi aniqlangan.

Yerning ichki qismida endogen jarayonlar natijasida yuzaga keladigan zilzilalar va ularning parametrlari giposentri, magnitudasidan foydalangan holda qurilgan geodinamik modelda tadqiqot hududining shimoliy va janubiy bortlari faol vertikal ko‘tarilish va tushish zona ko‘rinishida namoyon bo‘lgan va tektonik jihatdan faol bo‘lgan gors va graben strukturalarini hosil qilgan. Chotqol-Qurama hududida asosan yuqori magnitudali zilzilalar yer yoriqlariga mos keladi va tektonik burmalanishlarni hosil qilgan.

Hozirgi bosqichda tadqiqot hududida yuqori darajadagi gorizontall harakatlarning ortishi bilan bir qatorda tog‘ qoyalarida faol eroziya jarayonlar davom etmoqda va buning hisobiga o‘rta Tyan-Shan burmalangan tog‘ mintaqasi hududlaridagi tog‘lararo boltliqliklarda cho‘kindi to‘planishi bilan xususiyatlanadi. Ushbu jarayon bevosita litosfera plitasining harakati emas balki, mahalliy darajadagi

geologik jarayonlar bilan bog'liq. Chotqol-Qurama (Tovoqsoy maydoni) hududi uchun qurilgan yer qobig'ining geodinamik modelida aks etgani kabi zilzilalar giposentri faol bo'lgan yer yoriqlari zonasi va yuqori zichlikdagi qatlamlarning burmalangan chegarali qavatlarida sodir bo'layotganligini ko'rsatdi.

XULOSA

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha quyidagi natijalar olindi:

1. Chotqol-Qurama hududining regional va tajriba-sinov uchun tanlangan mahalliy miqyosdagi hududlari bo'yicha kosmik tasvirlarni qayta ishlash hamda seysmologik, geomorfologik usullarni qo'llash orqali turli faollik darajasiga ega bo'lgan yer yoriqlari ajratildi.

2. USGS saytidan olingan so'ngi 120 yil davomida sodir bo'lgan zilzilalar katalogi ma'lumotlarini tahlil qilish asosida Chotqol-Qurama hududining 3D geodinamik modeli yaratildi. Ushbu model Chotqol-Qurama hududi yer qobig'ining zamonaviy shakllanishini o'zida aks ettiradi. Unga ko'ra geodinamik modelda joylashgan yer yoriqlari aynan vertikal holatda emas, balki ma'lum bir burchak ostida yotganligi namoyon bo'ldi.

3. Tovoqsoy maydoni va uning atrof hududlarida 2022-2024 yillarda olib borilgan davriy GNSS o'lchovlari asosida tuzilgan yer qobig'ining o'rtacha yillik gorizont va vertikal harakat tezliklari aniqlandi. Olingan natijalar tadqiqot hududining zamonaviy geodinamik holatini baholash va yer qobig'ining zamonaviy harakatlarini tizimli monitoring qilishga xizmat qiladi.

4. Detal miqyosda olib borilgan gravimetriya va magnetometriya o'lchov ma'lumotlarini tahlil qilish asosida keskin farqlanuvchi anomaliyalarni namoyon bo'lishi bilan yer yoriqlari ajratildi.

5. Radarli interferometriya usuli orqali kosmik tasvirlarni deshifrovka qilish asosida Chotqol-Qurama hududining zamonaviy vertikal harakatlari aniqlandi. Olingan natijalar GNSS kuzatuvlari orqali aniqlangan vertikal harakatlar bilan solishtirildi.

6. Kosmik tasvirlarni radarli interferometriya usuli orqali qayta ishlash natijasida Karjantog' hududining shimoliy qismida dizyunktiv seysmodislokatsiya aniqlandi.

7. Ilk bor O'zbekiston sharoitida radarli interferometriya usuli yordamida Tovoqsoy hududining zamonaviy geodinamik harakatlari aniqlandi va GNSS o'lchov natijalari bilan taqqoslama tahlil qilindi.

8. O'zbekiston sharoitida radarli interferometriya ma'lumotlarini qayta ishlash orqali sodir bo'lgan zilzila kuchi qiyosiy baholangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.GM/FM97.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ИНСТИТУТЕ СЕЙСМОЛОГИИ**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

АЛЛАМБЕРДИЕВ ИСКАНДАР СУННАТУЛЛА УГЛИ

**ГЕОДИНАМИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ СЕЙСМОАКТИВНЫХ ЗОН
ТАВАКСАЙСКОГО ПОЛИГОНА И СОПРЕДЕЛЬНЫХ ТЕРРИТОРИЙ
ПО ДАННЫМ КОСМОГЕОДЕЗИЧЕСКИХ И ГЕОФИЗИЧЕСКИХ
МЕТОДОВ**

04.00.06 - Геофизика. Геофизические методы поисков полезных ископаемых

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по геолого-минералогическим наукам

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.3.PhD/GM236.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана им. Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.seismos.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Раджабов Шухрат Сайфуллаевич**
доктор геолого-минералогических наук

Официальные оппоненты: **Абдуллабеков Кахарбай Насирбекович**
академик, доктор физико-математических наук

Асадов Акмал Рузимуродович
кандидат геолого-минералогических наук

Ведущая организация: **Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится «25» июля 2025 г. в 11:00 часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.GM/FM97.01 при Институте Сейсмологии (Адрес: 100128, г. Ташкент, ул. Зулфияхоним, 3. Тел.: +99871 241-51-70, +99871 241-74-98, E-mail: seismologiya@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Сейсмологии (регистрационный номер № 1157) (Адрес: 100128, г.Ташкент, ул. Зулфияхоним, 3. Тел.: +99871 241-51-70).

Автореферат диссертации разослан «11» июля 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 16 от «11» июля 2025 года)



В.А. Исмаилов
Заместитель председателя
Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.г.-м.н., профессор

З.Ф. Шукуров
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD) по г.-м.н.

А.И. Туйчиев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мировой практике защита от стихийных бедствий природного и техногенного характера, снижение ущерба от землетрясений, в том числе оценка сейсмической опасности населения и территорий имеет актуальное значение. В частности, результаты научных исследований, посвященных определению направлений, ограниченных разломами блоков, оценке напряженно-деформированного состояния земной коры, а также изучения их взаимосвязи с современной сейсмичностью посредством геолого-геофизических, космогеодезических исследований, позволяют моделировать современное геодинамическое состояние, глубоко изучить природу землетрясений, оценить современные движения, вызванные эндогенными процессами, происходящими в земной коре сейсмоактивных районов.

На сегодняшний день в развитых странах мира проводится ряд научных исследований по GNSS, InSAR-технологии и радиолокационной (радарной) интерферометрии, в том числе особое внимание уделяется созданию современных геодинамических моделей в эпицентрах землетрясений, происходящих в сейсмоактивных районах, выявлению геологических процессов с оползневой опасностью, выделению зон активных разломов, сопоставлению полученных результатов с сейсмологическими данными. Исследования в этой области позволяют построить высокоточную цифровую высотную модель земной поверхности и определить современные вертикальные и горизонтальные движения земной коры.

В нашей республике при определении, анализе и мониторинге горизонтальных и вертикальных движений земной коры сейсмоактивных районов большое внимание уделяется применению высокоточных результатов космогеодезических измерений и современных методов дистанционного зондирования Земли. В Стратегии развития Нового Узбекистана определены важные задачи по “... экологии и охране окружающей среды, улучшению экологической ситуации в городах и районах...”¹. Для достижения этой цели исследования по созданию современной трехмерной геодинамической модели земной коры Чаткало-Кураминского региона служат для более достоверной оценки сейсмической опасности региона.

Результаты данного диссертационной исследований в определенной степени служит выполнению задач предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 1 июня 2017 года № УП-5066 “О мерах по коренному повышению эффективности предупреждения и ликвидации чрезвычайных ситуаций,” “О мерах по совершенствованию проведения научных исследований в области сейсмологии, сейсмостойкого строительства и сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистан” и Постановления Президента Республики Узбекистан от 30 мая 2020 года № ПП-4794 “О мерах по коренному совершенствованию системы обеспечения сейсмической безопасности населения и территории Республики

Узбекистан,” а также в других нормативно-правовых документов принятых в данной сфере.

